

**CHET DAVLATLAR (AQSH, YEVROPA ITTIFOQI, JANUBIY KOREYA)
TAJRIBASIDA MOLIVAVIY JINOYATLARGA QARSHI KURASH
TIZIMI**

Sheranov Baxodir Lapasovich

O'zbekiston Respublikasi huquqni muhofaza qilish akademiyasi magistranti

Annotatsiya: Maqolada moliyaviy jinoyatlarga qarshi kurashish bo'yicha AQSH (ekstraterritoriallik), Yevropa Ittifoqi (benefitsiar shaffoflik, Germaniya misolida naqd pul cheklovi) va Janubiy Koreya (raqamli monitoring) tajribasi qiyosiy tahlil qilingan. Tahlillar asosida O'zbekiston uchun yuridik shaxslarning jinoiy javobgarligi, ko'chmas mulk bozorida naqd pulni cheklash va raqamli identifikatsiyani o'z ichiga olgan "Gibrid model" taklif etilgan.

Kalit so'zlar: Moliyaviy jinoyatlar, xalqaro tajriba, FCPA, benefitsiar mulkdor, korporativ javobgarlik, naqd pulsiz hisob-kitob, raqamli monitoring, BaFin.

Аннотация: В статье проводится сравнительный анализ опыта США (экстерриториальность), ЕС (прозрачность бенефициаров, ограничение наличных в Германии) и Южной Кореи (цифровой мониторинг) в борьбе с финансовыми преступлениями. На основе анализа предложена «Гибридная модель» для Узбекистана, включающая уголовную ответственность юридических лиц, ограничение наличных расчетов на рынке недвижимости и цифровую идентификацию.

Ключевые слова: Финансовые преступления, международный опыт, FCPA, бенефициарный владелец, корпоративная ответственность, безналичный расчет, цифровой мониторинг, BaFin.

Abstract: *The article provides a comparative analysis of the US (extraterritoriality), EU (beneficial transparency, cash limits in Germany), and South Korean (digital monitoring) experiences in combating financial crimes. Based on the analysis, a “Hybrid Model” is proposed for Uzbekistan, incorporating corporate criminal liability, cash restrictions in the real estate market, and digital identification.*

Keywords: *Financial crimes, international experience, FCPA, beneficial owner, corporate liability, cashless settlement, digital monitoring, BaFin.*

Globallashuv sharoitida moliyaviy jinoyatchilik transmilliy xususiyat kasb etmoqda. Shu bois, milliy tizimni takomillashtirishda jahonning yetakchi modellarini o‘rganish va ularni O‘zbekiston qonunchiligiga moslashtirish (implementatsiya qilish) dolzarb ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqotda uch xil yondashuvga ega bo‘lgan hududlar: **AQSH** (qat’iy huquqiy ijro), **Yevropa Ittifoqi** (shaffoflik va standartlashtirish) va **Janubiy Koreya** (raqamli nazorat) tajribasi O‘zbekiston amaliyoti bilan qiyosiy tahlil qilindi.

AQSH tajribasi: Ekstraterritoriallik va “Kelishuv instituti”. AQSHning moliyaviy jinoyatlarga qarshi kurash modelining eng o‘ziga xos jihati — bu qonunlarning **ekstraterritorial** (hudud tanlamaslik) xususiyatidir.

AQSHning **“Xorijda korrupsiya amaliyotlari to‘g‘risida”gi qonuni (FCPA - Foreign Corrupt Practices Act)** butun dunyo bo‘ylab korrupsiya va “pora berish” holatlarini ta’qib qilish imkonini beradi. Unga ko‘ra, agar

O‘zbekistondagi korxona AQSH dollari orqali pora bersa yoki AQSH serverlaridan foydalansa, u AQSH sudi tomonidan javobgarlikka tortilishi mumkin.

Shuningdek, AQSHda **“Plea Bargaining”** (Aybiga iqror bo‘lish to‘g‘risidagi kelishuv) va **“Deferred Prosecution Agreements”** (Kechiktirilgan ta‘qib kelishuvlari) keng qo‘llaniladi. Korporatsiyalar sudlanmaslik evaziga davlatga milliardlab dollar jarima to‘laydi va ichki nazorat tizimini o‘zgartirish majburiyatini oladi.

Yuqoridagi jihatni O‘zbekiston qonunchiligi bilan qiyosiy tahlil qiladigan bo‘lsak, O‘zbekiston Jinoyat-protsessual kodeksida “Aybiga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv” instituti yaqinda kiritildi (**JKP 586¹-modda**). Biroq, bizda bu asosan jismoniy shaxslarga nisbatan qo‘llaniladi va jazo muddatini qisqartirishga qaratilgan. AQSHdagi kabi **yuridik shaxslarning jinoiy javobgarligi** (Corporate Criminal Liability) va ularga nisbatan moliyaviy sanksiyalarning (sudlovsiz jarimalar) qo‘llanilishi bizning qonunchilikda hali to‘liq shakllanmagan.

Shunday ekan, O‘zbekistonda moliyaviy jinoyatlar uchun yuridik shaxslarga nisbatan ham “jinoiy-huquqiy choralar”ni (masalan, faoliyatini to‘xtatib turish, yirik jarima yoki maxsus ma‘muriy boshqaruv kiritish) qo‘llash mexanizmini joriy etish lozim.

Yevropa Ittifoqi (YI) Tajribasi: Benefisiar mulkdorlar reestri va shaffoflik. Yevropa Ittifoqi moliyaviy jinoyatlarga qarshi kurashda **shaffoflikni (transparency)** asosiy qurol deb biladi.

YI ning “**Jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurash bo‘yicha 4 va 5-Direktivalari**” (AML Directives) barcha a‘zo davlatlarga **Benefisiar mulkdorlarning markazlashgan reestrini (UBO Register)** yuritishni majburiy qilib qo‘ygan. Bu degani, har qanday kompaniya ortida turgan haqiqiy shaxs (fizik shaxs) davlatga ma‘lum bo‘lishi va ko‘p hollarda bu ma‘lumot jamoatchilik uchun ochiq bo‘lishi shart.

O‘zbekistonda ham davlat xaridlari sohasida benefisiarlarni ochish talabi qo‘yilgan. Lekin, Yevropadagi kabi **barcha** MChJ va korxonalar uchun yagona, ochiq va integratsiyalashgan benefisiar mulkdorlar bazasi mavjud emas. Bizda ko‘pincha ta‘sischilar zanjiri (MChJning egasi boshqa MChJ bo‘lishi) orqali haqiqiy egasi yashiriladi.

Yuqoridagi xalqaro tajribadan kelib chiqib, O‘zbekistonda Tadbirkorlik subyektlarini ro‘yxatga olish bazasini takomillashtirib, har bir yangi ochilayotgan korxonadan “Nominal rahbar” emas, balki “Haqiqiy benefisiar” (kamida 25% ulushga ega shaxs) haqidagi ma‘lumotni talab qilish va bu ma‘lumotlarni moliyaviy razvedka organlari uchun to‘liq ochiq qilish zarur.

Germaniya tajribasi: Ko‘chmas mulk sektoridagi qat’iy nazorat va “BaFin” modeli. Germaniya moliyaviy jinoyatlarga qarshi kurashda dunyodagi eng qat’iy va tizimli yondashuvlardan biriga ega davlatdir. Nemis modelining o‘ziga xosligi — bu **naqd pulsiz hisob-kitoblar madaniyati** va ko‘chmas mulk sektoridagi “temir intizom”dir.

Germaniyada moliyaviy sektorni nazorat qiluvchi yagona kuchli regulyator — **BaFin (Bundesanstalt für Finanzdienstleistungsaufsicht)** mavjud. Bu tashkilot nafaqat banklarni, balki sugʻurta kompaniyalari, fond bozori va kripto-aktivlar provayderlarini ham yagona standart asosida nazorat qiladi¹.

Nemis qonunchiligining (“Geldwäschegesetz” — GwG) yana bir muhim jihati bu **“All-Crimes Approach”** (Barcha jinoyatlar yondashuvi) deb ataladi. Unga koʻra, pul yuvish jinoyati boʻyicha javobgarlikka tortish uchun pulning qaysi aniq jinoyatdan (masalan, oʻgʻrilikmi, soliqdan qochishmi yoki porami) kelganini isbotlash shart emas. Agar pulning manbasi noqonuniy ekanligi haqida yetarli shubha boʻlsa, moliyaviy tranzaksiya toʻxtatiladi va aktivlar musodara qilinadi².

Oʻzbekiston uchun eng dolzarb tajriba — bu Germaniyaning koʻchmas mulk bozoridagi yangi siyosatidir. Moliyaviy jinoyatchilar oʻz pullarini yuvish uchun koʻpincha qimmatbaho uylar sotib olishini inobatga olib, 2023-yildan kuchga kirgan **“Sanksiyalarni ijro etish toʻgʻrisidagi II Qonun”** (Sanktionsdurchsetzungsgesetz II)ga asosan:

- Koʻchmas mulk sotib olishda **naqd pul, kriptoalyuta va oltin** bilan toʻlov qilish butunlay **taqiqlandi**.

¹ BaFin (Federal Financial Supervisory Authority). (2023). *Annual Report 2022: Supervision of the Financial Sector*. Bonn: BaFin. www.bafin.de

² Gesetz über das Aufspüren von Gewinnen aus schweren Straftaten (Geldwäschegesetz - GwG). (2017). *German Money Laundering Act*, Section 261 of the German Criminal Code (StGB).

- Barcha oldi-sotdi operatsiyalari faqat bank o'tkazmalari orqali amalga oshirilishi shart qilib qo'yildi³. Notariuslar naqd pulda to'lov qilingan har qanday bitimni tasdiqlashi jinoyat deb baholanadi.

Yevropa Ittifoqi direktivalari asosida Germaniya "Shaffoflik reestri"ni to'liq ishga tushirdi. Unga ko'ra, har qanday nemis kompaniyasi o'zining haqiqiy egasi (benefisiar mulkdori) kim ekanligini davlatga ma'lum qilishi shart. Agar ma'lumot yashirilsa yoki noto'g'ri berilsa, kompaniya aylanmasining katta foizi miqdorida jarima solinadi⁴.

Germaniya tajribasini O'zbekiston qonunchiligi bilan solishtirganda quyidagi farqlar va imkoniyatlar ko'zga tashlanadi: **Germaniyada** uylar va yer uchastkalarini naqd pulga sotib olish qonunan man etilgan. Bu "qora pul"ning aktivga aylanish yo'lini to'sadi. O'zbekistonda ikkilamchi bozorda (aholi o'rtasida) uy-joy oldi-sotdisi hamon katta miqdordagi naqd AQSH dollari orqali amalga oshirilmoqda. Notariuslar to'lov amalga oshirilganligini tasdiqlasa-da, pulning kelib chiqish manbasi va uning bankdan o'tganligi qat'iy talab qilinmaydi (faqat ma'lum summadan yuqorisi uchun bank ma'lumotnomasi so'ralishi mumkin, lekin amaliyotda aylanib o'tish yo'llari mavjud).

Dissertatsiya doirasida O'zbekistonda Germaniya tajribasiga asoslangan quyidagi normani kiritishni taklif etaman:

³ Federal Ministry of Finance (Germany). (2022). *Second Act on the More Effective Enforcement of Sanctions (Sanktionsdurchsetzungsgesetz II)*. Berlin. Article 16a.

⁴ FATF (2022). *Anti-money laundering and counter-terrorist financing measures – Germany, Mutual Evaluation Report*. Paris: FATF. 154-160-betlar. www.fatf-gafi.org

*“Bazaviy hisoblash miqdorining 500 baravaridan (yoki ma’lum limitdan) ortiq qiymatdagi har qanday ko‘chmas mulk va avtotransport vositalarining oldi-sotdi shartnomalari bo‘yicha to‘lovlar **faqat bank hisobvaraqlari orqali** naqdsiz shaklda amalga oshirilishi shart. Naqd pulda to‘lovni qabul qilish yoki amalga oshirish bitimni haqiqiy emas deb topishga asos bo‘ladi”.*

Bu norma O‘zbekistonda yashirin iqtisodiyotning eng katta “bandargohi” bo‘lgan ko‘chmas mulk bozorini shaffoflashtiradi.

Janubiy Koreya tajribasi: “Real ism” siyosati va Raqamli monitoring. Janubiy Koreya naqd pulsiz iqtisodiyot va raqamli monitoring bo‘yicha Osiyo yetakchisidir.

1993-yilda joriy qilingan “**Real Name Financial Transaction System**” (Haqiqiy ismga asoslangan moliyaviy operatsiyalar tizimi) Koreya iqtisodiy mo‘jizasining asosi bo‘lgan. Unga ko‘ra, taxalluslar yoki boshqa shaxslar nomidan hisobraqam ochish qat’iyan taqiqlanadi. Bugungi kunda bu qoida **kriptovalyuta birjalariga** ham tatbiq etilgan. Kripto-birjada savdo qilish uchun fuqaro birjaga bog‘langan bankdan o‘zining haqiqiy ismi bilan hisobraqam ochishi shart.

Koreyada yuqori martabali amaldorlarning moliyaviy jinoyatlarini tergov qiluvchi alohida mustaqil organ — **CIO (Corruption Investigation Office for High-ranking Officials)** faoliyat yuritadi. Bu organ prokuraturadan mustaqil bo‘lib, siyosiy elita vakillarini tekshiradi.

O‘zbekiston bilan qiyosiy tahlil qilsak, O‘zbekistonda “P2P” o‘tkazmalar va elektron hamyonlar orqali amalga oshirilayotgan to‘lovlarda anonimlik elementlari saqlanib qolmoqda. Garchi SIM-kartalar pasportga bog‘langan bo‘lsa-da, identifikatsiyadan o‘tmagan elektron hamyonlar orqali pul yuvish xavfi mavjud. Shuningdek, bizda yuqori mansabdor shaxslarni tekshirish umumiy prokuratura tizimi doirasida amalga oshiriladi, ixtisoslashgan alohida avtonom organ mavjud emas.

Koreya tajribasidan kelib chiqib, O‘zbekistonda **“Raqamli aktivlar identifikatsiyasi”** milliy standartini joriy etish kerak. Kripto-aktivlar bilan bog‘liq har qanday operatsiya faqatgina bank identifikatsiyasi orqali amalga oshirilishini qonun bilan mustahkamlash lozim.

Chet davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, moliyaviy jinoyatlarga qarshi kurashning samaradorligi jazo qattiqligida emas, balki **moliyaviy shaffoflik** va **texnologik ustunlik**dadir. O‘zbekiston uchun AQSHning **korporativ javobgarlik** prinsipini, Yevropaning **benefisiarlarni oshkor qilish** standartini va Janubiy Koreyaning **raqamli identifikatsiya** tizimini o‘ziga xos “gibrid model” sifatida qonunchilikka implementatsiya qilish — milliy iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning eng maqbul yo‘lidir.

Xulosa qilib aytganda, xorijiy davlatlar tajribasini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, samarali moliyaviy monitoring tizimi bu – faqat jazolash apparati emas, balki shaffoflik va texnologik ustunlik ekotizimidir.

O‘zbekiston Respublikasi moliyaviy xavfsizlik tizimini takomillashtirishda quyidagi “Gibrid model”ni tanlashi maqsadga muvofiq:

1. **AQSH tajribasidan:** Yuridik shaxslarning jinoiy javobgarligini (jarima va sanksiyalar) joriy etish va “Whistleblowing” (korruptsiya haqida xabar bergan xodimni himoya qilish va mukofotlash) tizimini kuchaytirish.
2. **Yevropa va Germaniya tajribasidan:** Ko‘chmas mulk va avtomobil bozorida naqd pul aylanmasini bosqichma-bosqich cheklash hamda Benefisiar mulkdorlarning ochiq reestrini yaratish.
3. **Buyuk Britaniya tajribasidan:** Mansabdor shaxslarning daromadiga mos kelmaydigan mulklarini fuqarolik tartibida musodara qilish (UWO) mexanizmini kiritish.
4. **Osiyo tajribasidan:** Kripto-aktivlar va elektron tijoratda “Raqamli shaxs” (Digital Identity) nazoratini o‘rnatish.

Ushbu chora-tadbirlarning amalga oshirilishi O‘zbekistonning investitsion jozibadorligini oshirib, “kulrang iqtisodiyot” ulushini keskin qisqartirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi.
2. Foreign Corrupt Practices Act of 1977 (FCPA), 15 U.S.C. §§ 78dd-1.
3. BaFin (Federal Financial Supervisory Authority). (2023). *Annual Report 2022: Supervision of the Financial Sector*. Bonn: BaFin.



4. Gesetz über das Aufspüren von Gewinnen aus schweren Straftaten (Geldwäschegesetz - GwG). (2017). German Money Laundering Act.
5. Federal Ministry of Finance (Germany). (2022). *Second Act on the More Effective Enforcement of Sanctions (Sanktionsdurchsetzungsgesetz II)*. Berlin.
6. FATF (2022). *Anti-money laundering and counter-terrorist financing measures – Germany, Mutual Evaluation Report*. Paris: FATF.